

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# No1

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026

yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 79 sahifa.  
2026-yil, yanvar

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti




# MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
<b>Каракулов Фарход Зайпудинович</b>	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI .....	33
<b>Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna</b>	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH .....	38
<b>Achilov Ilmurad Nematovich</b>	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
<b>Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li</b>	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ .....	51
<b>Алиева Сусанна Сейрановна</b>	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЩЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ .....	58
<b>Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич</b>	
BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI .....	65
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
<b>Ashurova Oltin Yuldashevna</b>	



# KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA



**Ashurova Oltin Yuldashevna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrası katta o‘qituvchisi

ORCID: 0000-0003-4727-5450

**Annotatsiya.** Maqolada kraudfandingning mohiyati, afzalliklari va maqsadlari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, uning turli loyihalarni moliyalashtirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotning asosiy nazariy konstruktsiyalari va xulosalari barqaror rivojlanish nazariyasining kontseptual doirasi hamda yashil tarmoq iqtisodiyoti konsepsiyalariga asoslanadi. Shuningdek, kraudfanding texnologiyalarining yashil moliya tizimida ekologik yo‘naltirilgan loyihalarning moliyaviy va tijorat samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yashil kraudfandingning yashil moliya ekotizimi uchun muhim va mos moliyaviy mexanizm ekanligini ko‘rsatadi, chunki u global jamoaviy investitsiya muhitida yashil investitsiyalarni tanlashni qo‘llab-quvvatlaydi hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarning taqsimlangan manbalarini moliyaviy resurslar bilan samarali bog‘lash imkonini yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** kraudinvesting, kraudsorsing, frilanser, barqaror rivojlanish, yashil moliya, moliyaviy bozor, investitsiya platformalari, moliyaviy vosita, innovatsion texnologiyalar.

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the nature, advantages, and objectives of crowdfunding, highlighting its significant role in financing various projects. The main theoretical constructs and conclusions of the study are grounded in the conceptual framework of sustainable development theory and the principles of the green network economy. The research demonstrates that crowdfunding technologies possess considerable potential to enhance the financial and commercial effectiveness of environmentally oriented projects within the green finance system. The findings indicate that green crowdfunding represents an effective mechanism within the green finance ecosystem, as it supports the selection of green investments in the global collective investment environment and facilitates the efficient linkage of distributed sources of sustainable development ideas with financial resources.

**Key words:** crowdfunding, crowdsourcing, freelancer, sustainable development, green finance, financial market, investment platforms, financial instrument, innovative technologies.

**Аннотация.** В статье научно рассматриваются сущность, преимущества и цели краудфандинга, а также раскрывается его значимая роль в финансировании различных проектов. Основные теоретические положения и выводы исследования базируются на концептуальных основах теории устойчивого развития и концепциях зеленой сетевой экономики. Обосновано, что краудфандинговые технологии обладают существенным потенциалом для повышения финансовой и коммерческой эффективности экологически ориентированных проектов в системе зеленого финансирования. Результаты исследования подтверждают, что зеленый краудфандинг является эффективным инструментом экосистемы зеленого финансирования, поскольку он способствует отбору зеленых инвестиций в глобальной среде коллективного инвестирования и обеспечивает взаимосвязь распределенных источников идей устойчивого развития с финансовыми ресурсами.

**Ключевые слова:** краудинвестирование, краудсорсинг, фрилансер, устойчивое развитие, зеленое финансирование, финансовый рынок, инвестиционные платформы, финансовый инструмент, инновационные технологии.

## KIRISH

XXI-asrda moliyaviy bozorlarning raqamlashtirilishi kapitalni jalb etish yondashuvlarini tubdan o‘zgartirib, ularni keng ishtirokchilar doirasi uchun yanada ochiq va qulay shaklga keltirdi. Zamonaviy elektron to‘lov tizimlari,

moliyaviy texnologiyalar (fintech) hamda axborot-kommunikatsiya yechimlarining joriy etilishi an'anaviy bank protseduralariga xos bo'lgan bir qator cheklovlarni sezilarli darajada yumshatdi. Xususan, ilgari moliyalashtirish jarayonlariga xos bo'lgan yuqori vaqt, moliyaviy va ma'muriy xarajatlar, jumladan, katta komissiyalar, uzoq muddatli tekshiruv bosqichlari hamda shaxsiy o'zaro aloqaga bo'lgan ehtiyoj asta-sekin qisqardi.

Onlayn platformalar investorlar va loyiha tashabbuskorlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni rivojlantirish imkonini yaratib, banklar, brokerlik kompaniyalari va investitsiya fondlari kabi an'anaviy moliyaviy vositachilarning ishtirokini sezilarli darajada kamaytirdi. Natijada tranzaksiya xarajatlari optimallashtirildi, moliyalashtirish jarayonlarining tezkorligi va shaffofligi oshdi. Ushbu jarayonda kraudfanding alohida ahamiyat kasb etib, innovatsion kichik va o'rta biznes subyektlari hamda ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashning samarali moliyaviy mexanizmi sifatida shakllandi. Kraudfanding an'anaviy bank modellariga xos bo'lgan institutsional cheklovlarsiz moliyalashtirish imkoniyatini taqdim etib, tadbirkorlik va ijtimoiy tashabbuslarning rivojlanishiga qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda global moliyaviy tizim so'nggi yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy silkinishlar, ayrim milliy iqtisodiyotlarda kuzatilayotgan beqarorlik hamda yangi moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Xususan, raqamli moliyaviy vositalarning kengayishi moliya bozorlarining yanada moslashuvchan va innovatsion bo'lishiga zamin yaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, 2015-yil 25-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 ta mamlakat tomonidan 17 ta global Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini (BRM) o'z ichiga olgan "2030-yilgacha bo'lgan Barqaror Rivojlanish Kun tartibi"ning qabul qilinishi muhim tarixiy voqea hisoblanadi [1]. Ushbu maqsadlar barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi.

Shu bilan birga, BRMlarga erishish katta hajmdagi moliyaviy resurslarni safarbar etishni talab qiladi. Hozirgi kunda ushbu maqsadlarni to'liq amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmini bosqichma-bosqich kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Jahon iqtisodiyoti toza energiya tizimlarini rivojlantirish, ekologik transport texnologiyalarini joriy etish, iqlim o'zgarishini o'rganish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish, chiqindilar va emissiyalarni kamaytirish, shuningdek, aylanma iqtisodiyotga asoslangan dastur va strategiyalarni ishlab chiqish uchun sezilarli miqdordagi investitsiyalarga ehtiyoj sezmoqda.

Aylanma iqtisodiyotga oid loyihalar nafaqat tashkiliy shakllari bilan, balki ularning hayot aylanishining har bir bosqichida yuzaga keladigan risklar darajasi bilan ham farqlanadi. Bu holat turli xil kapital shakllari va moslashuvchan moliyalashtirish vositalaridan foydalanishni talab etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa tez sur'atlarda urbanizatsiyalashayotgan hududlarda, suv ta'minoti va sanitariya infratuzilmasi loyihalarini moliyalashtirishga ehtiyoj sezmoqda. Aholi daromadlari nisbatan past bo'lgan yirik mamlakatlarda esa sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini kengaytirish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik foyda keltiradigan investitsiyalar hajmini oshirish muammosini hal etishda yangi moliyaviy vositalar va yondashuvlarni ishlab chiqish, tadqiq etish hamda targ'ib qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalish umumiy ma'noda "yashil moliya" tushunchasi bilan ifodalanib, unga yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil banklar, davlat yashil fondlari va boshqa moliyaviy mexanizmlar kiradi.

Umuman olganda, global amaliyotda yirik yashil amaliy tadqiqotlar sonining nisbatan cheklanganligi va nazariy asoslarning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligiga qaramay, tarmoq iqtisodiyoti sharoitida hamda pandemiyaning moliya sektoriga uzoq muddatli ta'sirini hisobga olgan holda yashil investitsiya ustuvorliklarining qayta shakllanishi kuzatilmoqda. Ushbu sharoitda kraudfanding moliyaviy jozibadorligi nisbatan cheklangan, biroq ekologik va ijtimoiy ta'siri yuqori bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun istiqbolli va samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda [2].

So'nggi yillarda, ayniqsa global barqaror rivojlanishni moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj kuchaygan va yangi manbalar hamda mexanizmlarni izlash zarurati yuzaga kelgan sharoitda, kraudfanding yashil moliyalashtirish nazariyasi va amaliyotida muhim o'rin egallay boshladi. Kraudfanding boshqa ko'plab moliyaviy instrumentlar singari pandemiya davrida investitsiya oqimlarining qisqarishi va ayrim loyihalarning kechiktirilishi bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bo'lsa-da, u ijtimoiy tarmoqlar bilan uyg'unlashgan holda mahalliy va global miqyosda ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlovchi samarali va xavfsiz format sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Kraudfandingning keng qo'llanilishi ushbu sohaning ilmiy doiralarda tobora ortib borayotgan e'tibor markaziga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlarda muayyan yutuqlarga erishilganiga qaramay, bir qator muhim masalalar hanuzgacha chuqur o'rganilishni talab etadi. Xususan, kraudfanding platformalari orqali xorijiy innovatsion loyihalarga investitsiyalar yo'naltirilishi tendensiyasi mavjud bo'lsa-da, kraudfanding innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirishning mustaqil va samarali vositasi sifatida hali to'liq nazariy va amaliy jihatdan tizimlashtirilmagan.



Kraudfanding tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etiladi. Jumladan, O. Motovilovning ta'kidlashicha, kraudfanding loyiha mualliflariga o'z reja va g'oyalarni keng auditoriyaga taqdim etish hamda ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni jalb qilish imkonini beradi. Muallif ushbu moliyalashtirish shaklining asosiy afzalligi sifatida ixtirochilik va kreativlikni rivojlantirish imkoniyatini ko'rsatadi, bunda loyiha tashabbuskorlari, asosan, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslardan iborat bo'ladi [3].

G.A. Otiyanskayaning fikriga ko'ra, kraudfanding — bu onlayn platformalar orqali muayyan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida keng jamoatchilikdan mablag' yig'ishga qaratilgan faoliyat shaklidir. Muallif, shuningdek, aksiyalarga asoslangan kraudfanding turini alohida ta'kidlab, unda investorlar moliyalashtirilayotgan biznes subyekti ulushiga egalik qilish orqali daromad olishga intilishlarini qayd etadi [4]. Kraudfanding platformasida mablag' yig'ishni boshlash uchun loyiha muallifi aniq hisob-kitoblar va asoslangan takliflarni o'z ichiga olgan batafsil axborotni taqdim etishi lozim. Shundan so'ng, platforma ishtirokchilari loyihani moliyalashtirish yoki moliyalashtirmaslik bo'yicha qaror qabul qiladilar.

A.I. Sivaks kraudfandingni kraudsorsingning o'ziga xos turi sifatida talqin qilib, bunda uchinchi tomonlar muayyan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali uning yakuniy natijasiga erishishga hissa qo'shishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv kraudfandingni nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy hamkorlik mexanizmi sifatida ham baholash imkonini beradi.

Yashil kraudfanding konsepsiyasining rivojlanish dinamikasi va dolzarbligini chuqur tahlil qilishda bibliometrik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, kraudfanding texnologiyalari so'nggi yillarda xalqaro va milliy ilmiy nashrlarda tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida kraudfanding bilan bog'liq barqaror rivojlanish atamalarining tez-tez tilga olinishi ushbu mavzuga bo'lgan amaliy va ilmiy qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, barqaror rivojlanish masalalari kraudfanding bo'yicha tadqiqotlarda hali yetarli darajada kompleks yoritilmagan [5]. Aynan shu holat barqaror va yashil kraudfandingni mahalliy hamda xalqaro miqyosda istiqbolli va ilg'or tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qarashga asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda global ilmiy adabiyotlarda kraudfanding va barqaror rivojlanish masalalarini bir vaqtning o'zida yorituvchi nashrlar soni nisbatan cheklangan bo'lib qolmoqda. Xususan, Web of Science ma'lumotlariga ko'ra ushbu yo'nalishda 75 ta, Scopus ma'lumotlariga ko'ra esa 145 ta ilmiy nashr e'lon qilingan. Mazkur tadqiqotlar asosan "barqaror rivojlanish", "yashil", "barqarorlik" va "barqaror" kabi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ushbu mavzuga bo'lgan ilmiy qiziqishning izchil ortib borayotgani ijobiy tendensiya sifatida baholanadi.

Mazmunan tahlil shuni ko'rsatadiki, mahalliy ilmiy nashrlar, asosan, kraudfandingning afzalliklarini yoritishga qaratilgan bo'lib, kraudfanding texnologiyalarining muayyan sohalaridagi qo'llanilishida namoyon bo'ladigan kuchli va rivojlantirilishi mumkin bo'lgan jihatlarni kompleks tahlil qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan [6; 7]. Natijada, ushbu hodisani har tomonlama baholash imkoniyatlari cheklangan bo'lib, kelgusida chuqurroq va muvozanatli tahlillarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yillikda kraudfandingning jadal global kengayishiga qaramay, Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) moslashtirilgan loyihalar hamda ekologik yo'naltirilgan tashabbuslarni moliyalashtirishda ushbu vositadan foydalanish ilmiy tadqiqotlarda nisbatan kam yoritilgan. Jumladan, mazkur yo'nalishda chop etilgan nashrlar soni o'rtacha yiliga 50 tadan kamni tashkil etgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda yashil kraudfanding tushunchasi asosan yashil moliyalashtirish konsepsiyasi doirasida shakllantirilgan bo'lsa-da, kraudfandingga bunday yondashuv rus tilidagi tadqiqotlarda hali keng tarqalgan emas. Ushbu holat mazkur yo'nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Boshlang'ich metodologik nuqta sifatida yashil va barqaror moliyalashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish bilan bir qatorda, yashil kraudfanding tushunchasini kengroq talqinda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bunday yondashuv ekologik foyda keltirish bilan birga, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari kontekstida ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorlik ustuvorliklariga mos keladigan kraudfanding loyihalarini o'rganishda yanada keng qamrovli va tizimli analitik yondashuvlarni qo'llash imkonini yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kraudfandingning barqaror rivojlanishni moliyalashtirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks nazariy-analitik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi barqaror rivojlanish nazariyasi, yashil moliya konsepsiyasi hamda moliyaviy ekotizimlar nazariyasiga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, taqqoslama tahlil, bibliometrik tahlil (Web of Science va Scopus ma'lumotlari asosida), kontseptual modellashtirish, shuningdek, induktiv va deduktiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Empirik asos sifatida kraudfanding platformalariga oid ikkilamchi statistik va tahliliy materiallar hamda ilmiy manbalarda keltirilgan holat tahlillari umumlashtirildi.

Metodologiyaning muhim elementi sifatida ekotizim yondashuvi qo'llanilib, kraudfanding yashil moliya ekotizimining "tarmoqqa ulangan ko'p manfaatdor tomonlar platformasi" elementi sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv yashil kraudfandingning barqaror rivojlanish jarayonidagi o'rnini asosli ravishda ochib berishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyot va moliya sohasiga nisbatan ekotizim yondashuvi nisbatan yangi konsepsiya bo'lishiga qaramay, tadqiqotchilar va amaliyotchilar o'rtasida iqtisodiy ekotizimlarning asosiy xususiyatlari borasida umumiy kelishuv shakllangan [8]. Shu bilan birga, bunday tizimlarning tarkibiy tuzilishi va elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi ilmiy doiralarda hali ham faol muhokama qilinmoqda.


Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ekotizimni tirik organizmlar va ularning yashash muhitlarini o'z ichiga olgan murakkab, dinamik tizim sifatida talqin qiluvchi umumiy ilmiy yondashuv barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida samarali qo'llanishi mumkin. Xususan, biznes ekotizimi o'zaro bog'liq va hamkorlikda rivojlanadigan firmalar tarmog'i sifatida izohlanadi [9]. Bunday yondashuv an'anaviy sanoat chegaralaridan tashqariga chiqib, tashkilotlar o'rtasida yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik va simbiotik munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi [10].

Raqamli iqtisodiyot ekotizimi texnologik platformalar, amaliy internet xizmatlari, analitik tizimlar hamda davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolarning axborot tizimlari o'rtasida uzluksiz o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan ko'p subyekтли hamkorlik tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiy ekotizimlar singari, moliyaviy va raqamli ekotizimlar ham biotik komponentlar (odamlar, mijozlar, hamkorlar, tashkilotlar va boshqalar) hamda abiotik komponentlar (raqamli texnologiyalar va moliyaviy infratuzilma) o'rtasidagi nisbatan barqaror fazoviy va vaqtinchalik aloqalar bilan tavsiflanadi.

Deyarli barcha tirik ekotizimlarning mavjudligi energiya oqimlari bilan bog'liq bo'lgani kabi, moliyaviy ekotizimning asosini ham pul oqimlari tashkil etadi. Shu bilan birga, moliyaviy ekotizim o'z mohiyatiga ko'ra, alohida bir tashkilot yoki yagona raqamli platforma bilan cheklanib qolmaydi, balki kengroq institutsional va texnologik makonni qamrab oladi [11].

Moliyaviy ekotizim konsepsiyasining markaziy g'oyasi uning global muhit bilan uzviy aloqadorligidir. Bu aloqadorlik bir qator muhim imkoniyatlarni yaratadi: tanqis kapitalni uning eng yuqori ijtimoiy qiymatiga mos ravishda taqsimlash, investorlarni risk darajasini hisobga olgan holda moliyaviy, insoniy va moddiy resurslar bilan samarali uyg'unlashtirish hamda global miqyosda tanqislik signallarini shakllantirish.

O'z navbatida, yashil moliya ekotizimi "fundamental bitim" tamoyiliga asoslanadi. Mazkur bitimga ko'ra, ortiqcha kapitalga ega bo'lgan, biroq barqaror rivojlanish g'oyalari cheklangan subyektlar o'z mablag'larini kapitalga ehtiyoji yuqori, ammo innovatsion va ekologik g'oyalarga boy subyektlarga yo'naltiradilar. Fundamental bitim yashil moliya ekotizimi doirasida tanlov va rag'batlantirish mexanizmini shakllantiradi: moliyaviy innovatsiyalar va bitimlar ushbu bitimning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan taqdirda qo'llab-quvvatlanadi (1-rasm).



1-rasm. Yashil moliya ekotizimining tuzilishi



Bunday moliyaviy ekotizimning umumiy barqarorligi quyidagi asosiy xususiyatlar bilan ta'minlanadi:

–izchillik: ekotizim ichidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlar izchil, universal hamda ishonchli protokollarga asoslanadi (raqamli shartnomalar, xavfsiz tranzaksiya kanallari, blokcheyn texnologiyalari);

–hayotiylik: tizim talab va taklifni muvozanatlashtirish, iste'molchilar, hamkorlar va boshqa ishtirokchilarni jalb etish uchun qiymat va o'ziga xoslikka asoslangan muhitni shakllantiradi. Bu ko'pincha moliyaviy bo'lmagan xizmatlarni integratsiyalashni, shuningdek, fikr yetakchilari va eko-evangelistlar deb ataluvchi subyektlarning qo'llab-quvvatlashini talab etadi;

–taqsimlanganlik: moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar taqsimlangan holda faoliyat yuritib, mustaqil hamda integratsiyalashgan shakllarda ishlashi mumkin;

–tarmoq va sinergetik effektlar: manfaatdor tomonlar, mijozlar va iste'molchilarni jalb qilish, shuningdek, ulanishlar sonining ortishi orqali qiymatning chiziqli bo'lmagan o'sishi yuzaga keladi;

–moslashuvchanlik: ekotizim tashqi salbiy ta'sirlarga va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan barqaror va chidamli bo'lishi lozim;

–barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida fundamental tranzaksiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Muayyan milliy sharoitlarda yashil moliya ekotizimini joriy etishning batafsil tahlili mazkur tadqiqot doirasidan tashqarida qoladi. Biroq yuqorida keltirilgan umumiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, yashil kraudfanding instrumental konsepsiya sifatida, asosan, yashil moliya ekotizimi sharoitlariga mos keladi. Chunki u barqaror rivojlanish g'oyalarini moliyalashtirish manbalari bilan samarali bog'laydi hamda taqsimlangan, dinamik va moslashuvchan tarmoq sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, yashil kraudfandingni yashil moliya ekotizimining kengroq kontseptual doirasida "tarmoqqa ulangan ko'p manfaatdor tomonlar platformasi" elementi sifatida tasniflash mumkin.

Amaldagi yashil moliyalashtirish vositalari, odatda, tranzaksiyalarni amalga oshirish jarayonida tashqi yoki ixtisoslashtirilgan baholashni talab qiladi. Bunga loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, ekologik choralar samaradorligini monitoring qilish, kredit qo'mitalari faoliyati, tekshiruv jarayonlari hamda yashil obligatsiyalarni sertifikatlash kabi tadbirlar kiradi. Shu bilan birga, taqsimlangan va markazlashtirilmagan platformalar hamda ularda faoliyat yurituvchi jamoalar ekspertiza xarajatlarini optimallashtirish va moliyaviy ehtiyojlarni mavjud imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ushbu holatni inobatga olgan holda, yashil kraudfanding o'zining instrumental moslashuvchanligi va global jamoaviy investorlar ehtiyojlariga yo'naltirilganligi sababli yashil moliya ekotizimidagi bir qator murakkab vazifalarni qisman hal etish imkoniyatiga ega. Xususan, u quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

–kraudfanding orqali an'anaviy moliyaviy vositalar uchun kirish qiyin bo'lgan segmentlarni qamrab olish natijasida rivojlanish moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi va barqaror moliyalashtirish maqsadlarining bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi (masalan, ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya orqali mahalliy jamoalarni muammolarni hal etishga jalb etish);

–yashil kraudfanding uchun maxsus soliq rag'batlarini joriy etish orqali jalb qilinadigan kapital xarajatlarini tizimli ravishda kamaytirish, shuningdek, kraudfanding platformalari orqali tranzaksiya xarajatlarini qayta taqsimlash va optimallashtirish imkonini yaratadi;

–investitsiyalarning ijtimoiy, ekologik va axloqiy jihatlarini hisobga oluvchi qadriyatlarga asoslangan yondashuvni onlayn muhitda keng targ'ib etish orqali mas'uliyatli investitsiyalarga o'tish jarayonini jadallashtiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, barqaror rivojlanishni moliyalashtirishda bevosita jamoatchilik ishtiroki masalalari an'anaviy yashil moliyalashtirish mexanizmlarida yetarlicha yoritilmagan bo'lsa-da, ushbu yo'nalish jismoniy shaxslar va mahalliy jamoalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ekologik madaniyatni rivojlantirish strategik ustuvorliklardan biri hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri jamoaviy ishtirokni ta'minlovchi vosita sifatida yashil kraudfanding mazkur maqsadlarga yuqori darajada mos keladi.

Ma'lumki, biznes ustuvorliklari har doim ham barqaror rivojlanishning ijtimoiy maqsadlari bilan to'liq mos kelavermaydi, bu esa ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashuvi va atrof-muhit holatining yomonlashuvi kabi muammolarni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, yashil kraudfanding xususiy investitsiyalarni rivojlantirishda muhim qo'shimcha yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Venchur kapitali va xususiy kapital, odatda, yashil loyihalarni keyingi bosqichlarda — risklar darajasi pasaygan va investitsiyalarni qaytarish muddati qisqargan sharoitda — moliyalashtirishga moyil bo'ladi. Ayni paytda, ko'plab yashil loyihalar dastlabki bosqichlarda yanada kengroq qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Kraudfanding platformalari, o'z navbatida, aniq ijtimoiy yoki ekologik salohiyatga ega bo'lgan g'oyalar uchun boshlang'ich moliyalashtirishni jalb etishda keng imkoniyatlar yaratadi. Kraudfanding turli xil moliyaviy modellarni — kreditlashdan tortib, aksiyaviy ishtirok va xayriya shakllarigacha — taklif qilishi hamda turli toifadagi investorlar va donorlar uchun mos bo'lishi sababli aralash moliyalashtirishning integratsiyalashgan komponentiga aylanishi mumkin. Ushbu sharoitda kraudfanding platformalari xususiy investorlar va davlat qo'llab-quvvatlashiga bo'lgan ishonch omillarini uyg'unlashtirib, an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlariga to'liq mos kelmaydigan loyihalar uchun yashil moliyalashtirishni safarbar etishda sinergik samaraga erishish



imkonini beradi. Bunday loyihalar qatoriga moliyalashtirish hajmi yetarli bo'lmagan tashabbuslar, dastlabki bosqichdagi loyihalar, patentlanmagan texnologiyalar va boshqa shunga o'xshash holatlar kiradi.

Bundan tashqari, yetarli darajada tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi mexanizmlar joriy etilgan sharoitda, kraudfanding platformalari istiqbolli yashil loyihalarni izlayotgan xususiy investorlar uchun yuzaga keladigan yuqori tranzaksiya va qidiruv xarajatlarini qisman kompensatsiya qiluvchi mustaqil ekotizim manbaiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur bosqichda yashil kraudfandingning rivojlanishini cheklovchi ayrim omillarni ham qayd etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, ushbu cheklovlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- platforma va loyiha yurisdiksiyasi bilan bog'liq bo'lgan valyuta va huquqiy cheklovlarga qaramlik;
- kraudfanding platformalariga qarab moliyalashtirish maqsadlari va shartlarining keng diapazonda farqlanishi;

- infratuzilma loyihalari hamda PPP/MPP loyihalarini kraudfanding asosida moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- kraudfanding platformalarida yashil kraudfanding sohasidagi ekspertlar hamjamiyatining nisbatan cheklangan vakilligi;

- nazariy konsepsiyaning to'liq shakllanmaganligi, shuningdek, milliy moliyaviy tizimlarda yashil kraudfandingni samarali joriy etish masalalariga ilmiy va tartibga soluvchi e'tiborning yetarli emasligi.

Shu bilan birga, yashil kraudfanding ijtimoiy kapitalni safarbar etish va butun dunyo bo'ylab keng doiradagi individual investorlarning mavjud moliyaviy resurslariga kirish imkonini yaratadi. Mazkur mexanizm ushbu resurslarni barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ravishda, ko'pincha hukumatning bevosita ishtirokisiz, tabiiy va moslashuvchan tarzda yo'naltirish imkonini beradi. Bu holat, ayniqsa, milliy yoki global inqirozlar davrida, boshqa moliyaviy vositalarning imkoniyatlari cheklangan sharoitda, barqaror rivojlanishni moliyalashtirish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barqarorlikka yo'naltirilganlik kraudfanding loyihalarining moliyaviy maqsadlariga erishishdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ta'sir, asosan, loyihaning kreativlik darajasi va uchinchi tomonlar tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash orqali namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, atrof-muhitga yo'naltirilganlik texnik jihatdan murakkab va yuqori darajada kreativ loyihalarning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, aksiyaviy kraudfanding holatida esa bunday loyihalarning mos qadriyatlarga ega investorlar uchun investitsiya jozibadorligini oshiradi. Yashil kraudfanding loyihalari o'z maqsadlarini aniq, izchil va har tomonlama ifodalagan, shuningdek, ijtimoiy kapital imkoniyatlaridan samarali foydalangan taqdirda, maqsadli moliyalashtirishga erishish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Meta-tadqiqot doirasida amalga oshirilgan izlanishlar hamda individual holatlarning meta-tahlili kraudfandingning sezilarli ijtimoiy va ekologik ta'sirga ega loyihalarni aniqlash imkonini berishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, u an'anaviy investitsiya vositalariga xos bo'lgan ayrim cheklovlarning, xususan, tegishli tekshiruv jarayonlarida yuzaga keladigan yuqori tranzaksiya xarajatlarining yashil moliyalashtirish jarayoniga ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Yashil moliya nuqtai nazaridan, yashil kraudfanding turli moliyalashtirish manbalari doirasida barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchiligi mustahkamlaydi. Shu bilan birga, u ijtimoiy, ekologik va axloqiy komponentlarni hisobga oluvchi qadriyatlarga asoslangan investitsion dunyoqarashni tarmoq orqali keng tarqatish imkonini yaratib, mas'uliyatli investitsiyalarga o'tish jarayonini jadallashtiradi.

Yashil kraudfanding, asosan, yashil loyihalarni moliyalashtirishda bevosita jamoaviy ishtirokni ta'minlovchi samarali moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizm, ayniqsa, milliy iqtisodiy inqirozlar va bozor hajmining notekis qisqarishi sharoitida, boshqa mintaqalar va mamlakatlardagi xususiy shaxslarni moliyalashtirish jarayoniga tez va moslashuvchan tarzda jalb etish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Kraudfandingning izchil rivojlanishi innovatsion mahsulotlar va ixtirolarning paydo bo'lishiga, shuningdek, bozorda sinergetik ta'sirlardan samarali foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. Bu esa yashil va barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishda kraudfandingning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A/RES/70/1. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development / United Nations. – URL: <https://sustainabledevelopment.un.org/post2015/transformingourworld>
2. Martinez-Climent, C., Costa-Climent, R., Oghazi, P. (2019). Sustainable Financing through Crowdfunding. Sustainability, vol. 11, iss. 3.
3. Мотовилов О. В. Феномен краудфандинга: исследование особенностей // Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика. – 2018. – Т. 34. – № 2. – С. 298–316.



4. Отливанская Г. А. Перспективы и возможности применения краудфандинга в инвестиционной деятельности предприятий // Финансы и банковское дело. – 2017. – № 2. – С. 276–281.
5. Dos-Santos, M. J. P. L., Mota, M., Ferreiro, M. F., Ahmad, N., Ahmed, R. R., Machado-Santos, C., Silva, E. (2020). Assessing the Sustainability of Crowdfunding in Social Media and Google Trends. In: *Advances in Human Factors, Business Management and Leadership*. – Washington, D.C., USA. – Pp. 189–196.
6. Недзвецкий Н. С. Финансовый потенциал «толпы»: российский и европейский краудфандинг // Экономика: вчера, сегодня, завтра. – 2017. – Т. 7. – № 6А. – С. 126–138.
7. Сивакс А. Н. Краудфандинг как специфический вид краудсорсинга // Вестник Самарского государственного экономического университета. – 2015. – № 11. – С. 30–34.
8. Berghofer, A., Berger, J., Kone, I., Tröger, U., Caspary, H. U. (2018). Ecosystem Services for Conservation Finance: Applying the TEEB Stepwise Approach in Côte d'Ivoire. *Biodiversity and Conservation*, vol. 27. – Pp. 2897–2917.
9. Lansiti, M., Levien, R. (2004). *The Keystone Advantage: What the New Dynamics of Business Ecosystems Mean for Strategy, Innovation, and Sustainability*. – Boston: Harvard Business Press. – 304 p.
10. Lee, I., Shin, Y. J. (2018). Fintech: Ecosystem, Business Models, Investment Decisions, and Challenges. *Business Horizons*, vol. 61, iss. 1. – Pp. 35–46.
11. Радковская Н. П., Фомичева О. Е. Финансовая экосистема – основной тренд цифровой трансформации модели банковского бизнеса // Журнал правовых и экономических исследований. – 2018. – № 4. – С. 186–189.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)